

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.QX.13.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING
TOSHKENT FILIALI**

QO‘ZIBOYEVA O‘G‘ILBU IMOMALI QIZI

**QORAMOLLAR INFEKSION MASTITLARI, ULARNING
DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**16.00.03-Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi,
mikotoksikologiyasi va immunologiyasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

UO‘K: 619:636.92:576.89:616.99:616-084:615.7

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам.**

**Content of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD) on veterinary
sciences**

Qo‘ziboyeva O‘g‘ilbu Imomali qizi

Qoramollar infeksiyon mastitlari, ularning diagnostikasi va davolashni
takomillashtirish.....3

Кузибаева Огилбу Имомали кизи

Инфекционные маститы крупного рогатого скота, совершенствование их
диагностики и лечения.....19

Kuzibaeva Ogilbu Imomali kizi

Infectious mastitis in cattle, improvement of its diagnostics and treatment.....35

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works.....39

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.QX.13.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING
TOSHKENT FILIALI**

QO‘ZIBOYEVA O‘G‘ILBU IMOMALI QIZI

**QORAMOLLAR INFEKSION MASTITLARI, ULARNING
DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH**

**16.00.03-Veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi,
mikotoksikologiyasi va immunologiyasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/V83 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume) Toshkent davlat agrar universiteti (www.tdau.uz) Respublika ilmiy qishloq xo'jaligi kutubxonasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi hamda «Ziyo-Net» axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mengliyev G'ayrat Akramovich
veterinariya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abdusattorov Abdusalom Abdusattorovich
veterinariya fanlari doktori, professor

Elmurodov Bozorboy Aktamovich
veterinariya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning «15» *MOX* 2025 yil soat «14» da Toshkent davlat agrar universiteti ma'muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zalidagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2 uy.tel: (+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markasida tanishish mumkin (№ 552093 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. ToshDAU ARM binosi, 1-qavat. Tel: (+99871) 260-50-43

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «*27 fevral*» kuni tarqatildi.
(2025-yil «13» fevraldagi 42-raqamli reestr bayonnomasi)



[Signature]
Sh.R.Umarov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi q.x.f.d., professor

[Signature]
Sh.A.Abdurasulov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi b.f.n

[Signature]
Sh.I.Mavlanov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, v.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida nasldorlik va maxsuldorlik xususiyatlari yuqori darajada bo'lib qoramol zotlari podasini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ammo ayrim hollarda chorva mollarida turli xildagi yuqumli va yuqumsiz kasalliklarni uchratish mumkin. Jumladan «...Yuqori mahsuldor sigirlarda infeksiyon mastit o'rtacha 40-60% tarqalgan bo'lib»¹, sigirlar sut mahsuldorligi va sut sifatining pasayishi, buzoqlarning kasallanishi va boshqa veterinariya sanitariya tadbirlari ko'payishidan katta iqtisodiy zararga olib kelmoqda. Dunyo aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda chorvachilikning asosiy tarmog'i bo'lgan sut yo'nalishdagi qoramolchilik sohasi yetakchi o'rinni egallaydi. Ushbu sohani intensiv rivojlantirish uchun sog'lom yuqori mahsuldor sigirlar bosh sonini ko'paytirish, ularni ekspluatatsiya muddatlarini uzaytirish, genetik imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish, ekologik toza va sifatli sut va sut mahsulotlarini olish muhim dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Dunyoning barcha chorvachilik xo'jaliklarida infeksiyon mastit kasalligi tarqalgan bo'lib uni oldini olish borasida yetakchi ilmiy muassasalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotchilar tomonidan 80-90-yillarda kasallikning kechishi, ularga tashxis qo'yish, davolash va kamaytirish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan, shunga qaramasdan subklinik mastitga erta tashxis qo'yish hozirgi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda. Jahonda 211 million bosh qoramollar mavjud bo'lib shundan sigirlarning infeksiyon mastit bilan kasallanish darajasi 40%ni tashkil etadi. Shu jumladan mamlakatimiz qoramolchilik xo'jaliklarida esa 8% dan 32% gacha bo'lishi aniqlangan. Ushbu kasallik sigirlarda sut mahsulotining kamayishi, sutning texnologik sifatini pasayishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, sut bezi kanallari atrofiyasi tufayli yaroqsiz holga kelishiga sabab bo'ladi.

Respublikamizda qoramolchilikni jadal rivojlantirish, xalqimizni arzon va sifatli sut mahsulotlari bilan ta'minlash, ayniqsa qishloq joylarida istiqomat qilayotgan fuqarolarning bandligini ta'minlash va daromadlarini ko'paytirish maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirishda qoramollarda uchraydigan infeksiyon kasalliklar, shu jumladan infeksiyon klinik va subklinik mastit katta to'siqlardan bo'lib, sut mahsuldorligining kamayishi hamda sog'in sigirlarning yaroqsiz holga kelishi, texnologik jarayonlarning izdan chiqishi, mahsulot yetishtirish uchun iqtisodiy zarar yetkazilmoqda. Shu boisdan sigirlarda uchraydigan subklinik va klinik mastitlarni erta aniqlash, davolash va oldini olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «...2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi

¹Studnikova E.A. Sigirlarni subklinik mastit bilan davolashning usulini ishlab chiqish. Diss. Veterinar. Fan Saratov 2015. 132. bet

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»² farmoni, 2020-yil 29-yanvardagi PQ-4576-sonli «Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022 yil 8 fevraldagi PQ-120-son «O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yil mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2022 yil 31 martdagi PQ-187-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi, qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning V. «Qishloq xo‘jaligi biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qoramollarda infeksiyon mastit kasalligining qo‘zg‘atuvchisi, etiologiyasi, patogenezini, tarqalishi va qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo‘yicha T.Goshen, N.Y.Shigel, M.Herr, H.Bostedt, K.Failing, S.Kumar, V.K.Dumka, M.Sheldolar kabi xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. MDH davlatlarida kasallikni yashirin davrida aniqlash, profilaktikasi, tashxisi, davolash bo‘yicha V.S.Avdeenko, M.A.Bagmanov, A.V.Boyko, K.D.Valyushkin, I.T.Djakupov, I.I.Valkovoy, A.I.Varganov, S.N. Aleksandrovlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Shuningdek mamlakatimiz olimlaridan N.G.Shatoxin, Sh.B.Ata-Kurbanov, B.Eshbo‘riyev, G‘.A.Mengliyev, A.X.Bozorov, A.A.Abdusattorov Sh.A.Abdurasulovlar tomonidan o‘z vaqtida qoramollarni kasallanishini oldini olish hamda ularning keng tarqalishiga yo‘l qo‘yilmaslik borasida ilmiy va amaliy tadbirlar ishlab chiqib ijobiy natijalarga erishganlar.

Lekin bugungi kunda sigirlarda infeksiyon mastit kasalligiga zamonaviy preparatlarning ta‘siri va kasallikni yashirin davrida aniqlashning zamonaviy usullardan foydalanish bo‘yicha ishlar to‘liq o‘rganilmagan. Mavjudlarini esa yanada takomillashtirish talab etiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filialining «Umumiy veterinariya meditsinasi» kafedrasida «Toshkent viloyatining Zangi ota va Yangi yo‘l tumanlaridagi chorvachilik xo‘jaliklarida sog‘in sigirlar mastit kasalligi profilaktikasi, oldini olish va davolash» ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida (2020-2023 yy) olib borilgan.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni

Tadqiqotning maqsadi qoramollarda infeksiyon mastit kasalligini yashirin (subklinik) davrida aniqlash, aniqlangan infeksiyon mastitni qo'zg'atuvchilarini kultural, biokimyoviy hamda morfologik belgilariga qarab zamonaviy perfoceft preparatini qo'llash hamda amaliyotga joriy qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

respublikamizning shaxsiy dexqon fermer xo'jaliklaridagi sigirlarda infeksiyon mastit kasalliklari qo'zg'atuvchilarini etialogik tarkibi, epizootologiyasi, patogenezini, diagnostikasi va tarqalishini aniqlash;

sigirlarda mastit kasalliklarining sabablari, rivojlanish xususiyatlari, simptom va sindromlari, qondagi morfobiokimyoviy o'zgarishlarni o'rganish;

sigirlarda mastit kasalligiga zamonaviy veterinariya diagnostika vositalari va usullari yordamida kasallikning yashirin (subklinik) davrida aniqlashni o'rganish;

mastomitsin, mastopred, gentam, ketojekt, perfoseft preparatlarini sigirlarda infeksiyon mastit kasalligida qo'llash va ularning samaradorligini aniqlash;

qoramolchilik fermer xo'jaliklari sharoitida sigirlar orasida infeksiyon mastitlarning asosiy turlari hamda ularning xo'jaliklarga keltiradigan iqtisodiy zararini o'rganish;

Tadqiqot ob'ekti ilmiy tadqiqotlarning eksperimental qismi 2021-2023 yillarga mo'ljallangan bo'lib, Toshkent viloyati Parkent tumani «Bo'ston» mahallasidagi «Talant» fermer xo'jaligi va Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani «Jamol ota» fermer xo'jaligida, Yuqori chirchiq tumani «Ergash ota» MChJ chorvachilik fermasi, Yuqori chirchiq tumani «Anor-agro chorva» fermer xo'jaliklarida bajarildi. Bunda mastisan, mastopret, gentam, ketojekt, perfoceft preparatlari hamda erta diagnoz qo'yishda mastoprim, mastidiagnoz, kerbatest, mastidin, dimastidin reagentlaridan kasallikni aniqlashda foydalanildi.

Tadqiqotning predmeti qo'zg'atuvchilarning etiologiyasi turi va epizootologiyasi, asosiy qo'zg'atuvchilarning biokimyoviy xususiyatlari, subklinik mastitning latent davrida erta tashxis usulini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari sigirlarda infeksiyon mastit kasalligini yashirin (subklinik) davrida aniqlash maqsadida zamonaviy kerbatest preparatlar qo'llanildi hamda tadqiqotlar davomida umumiy qabul qilingan vaytsay testlari sigirlarda infeksiyon mastit kasalligini klinik, laborator, bakteriologik, bakteroskopik, biokimyoviy va boshqa testlar yordamida diagnostik tekshirish hamda statistik taxlil usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

sigirlarda subklinik mastitning etiologiyasida *Staphylococcus epidermidis* bakteriyasining o'rni 61,23%, streptokokklar 29,59% hamda 9,18% boshqa tur bakteriyalar ekanligi tadqiqotlarimiz davomida aniqlangan;

sigirlarda infeksiyon mastit kasalligini subklinik davrida ekspress diagnoz qo'yish uchun «Kerbotest» dan foydalanilganda, subklinik kasallik shakliga 52,7% aniqlikda erta diagnoz qo'yishga erishilgan;

qoramollarda infeksiyon mastit kasalligini davolashda mastopret pereparati qo'llanilganda 42,1% ijobiy natija olish mumkinligi isbotlangan;

infeksiyon mastit kasalligini subklinik davrida aniqlab, oldini olish uchun

Perfoseft (seftizoksim) preparatini qo'llanilganda infeksiyon mastit kasalligini 89,47% kamayishga erishildi;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Toshkent viloyati qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari va shaxsiy dehqon fermer xo'jaliklardagi sigirlarda infeksiyon mastit kasalligining tarqalishi va kelib chiqish sabablari aniqlangan;

laktatsiya davri to'xtagandan, tug'riqgacha vaqt oralig'ida sigirlar organizmiga Perfoseft (seftizoksim) preparatini qo'llash tug'riqdan keyin paydo bo'ladigan mastit kasalligini 89,47% kamaytirishga erishilgan;

veterinariya laboratoriyalarida va xo'jaliklar sharoitida infeksiyon mastitlarni erta aniqlash bo'yicha ishonchli test diagnostikumlardan foydalanilgan;

subklinik mastit ko'p uchrashi bahor oylariga to'g'ri kelib 33,52% ni tashkil etgan:

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy tadqiqotlarni yangi zamonaviy preparat bilan foydalangan holda olib borilgan. Olingan nazariy ma'lumotlarning tajriba natijalariga mos kelishi *stafilokokk*, *streptokokk* qo'zg'atuvchilarining etiologik, biologik va biokimyoviy xususiyatlarini o'rganishda bakteriologik tekshirish usullaridan foydalanilganligi, olingan natijalarni ilmiy tahlil qilinganligi, ilmiy tadqiqot natijalari xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tajribalari bilan taqqoslanganligi, joriy etish dalolatnomalari va ma'lumotnomalar bilan tasdiqlanganligi hamda olingan natijalarni nashr etilganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, sigirlar infeksiyon mastit kasalligida ajratilgan patogen bakteriyalar orasida asosiy o'rinni subklinik shaklidagi mastitda *stafilokokkus epidermidis*, klinik shaklda *stafilokokkus aures* qo'zg'atuvchisi potogen ta'sir ko'rsatishi nazariy tomonidan isbotlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qoramollarda infeksiyon mastit kasalligining asosiy qo'zg'atuvchilarining ahamiyati, ularning o'rganilayotgan mintaqada xo'jaliklardagi sigirlarda uchrash darajasini baholash hamda qo'zg'atuvchilarga ta'sir ko'rsatkichiga ega keng spektrli preparatdan foydalanilgan, shuningdek dissertatsiya doirasida ishlab chiqilgan «O'zbekiston sharoitida sigirlarda mastit kasalligini oldini olish bo'yicha» tavsiyanomasi respublikamiz fermer xo'jaliklaridagi sigirlar infeksiyon mastit kasalligini erta aniqlash hamda oldini olishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoramollar infeksiyon mastitlari, ularning diagnostikasi va davolashni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida;

mastit kasalligini davolashda foydalanilgan yuqori sifatga ega perfoceft (seftizoksim) dori vositasini qo'llash usuli Toshkent viloyati Parkent tumani «Talang» fermer xo'jaligining qoramolchilik fermasida joriy qilingan. («O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish» qo'mitasining 2024-yil 20-noyabrdagi 02/23-649-son ma'lumotnomasi). Natijada har bir bosh sigirni davolash uchun qilingan xarajat va davolash natijasida mahsulot hisobida olingan sof foyda 3750000 so'mga teng

bo'ldi. Joriy qilingan ish samaradorligi hisobiga olingan sof foyda har bir qilingan 1 so'm xarajatga 7,92 so'mni tashkil qildi;

maxsuldor sog'in sigirlar mastit kasalligini davolashning takomillashtirish usuli Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani «Anor Agro» fermer xo'jaligining qoramolchilik fermasida joriy qilingan. («O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish» qo'mitasining 2024-yil 20-noyabrdagi 02/23-649-son ma'lumotnomasi). Natijada har bir bosh sigirni davolash uchun qilingan xarajat va davolash natijasida mahsulot hisobida olingan sof foyda 3792000 so'mga teng bo'ldi. Joriy qilingan ish samaradorligi hisobiga olingan sof foyda har bir qilingan 1 so'm xarajatga 7,62 so'mni tashkil qildi;

maxsuldor sog'in sigirlar mastit kasalligini Perfosept (seftizoksim) preparati bilan davolash Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani «Ergash ota» fermer xo'jaligining qoramolchilik fermasida joriy qilingan. («O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish» qo'mitasining 2024-yil 20-noyabrdagi 02/23-649-son ma'lumotnomasi). Natijada har bir bosh sigirni davolash uchun qilingan xarajat va davolash natijasida mahsulot hisobida olingan sof foyda 3967000 so'mga teng bo'ldi. Joriy qilingan ish samaradorligi hisobiga olingan sof foyda har bir qilingan 1 so'm xarajatga 9,20 so'mni tashkil qildi;

mastit kasalligini davolashda foydalanilgan yuqori sifatga ega perfocept (seftizoksim) dori vositasini qo'llash Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani «Jamol ota» fermer xo'jaligining qoramolchilik fermasida joriy qilingan. («O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish» qo'mitasining 2024-yil 20-noyabrdagi 02/23-649-son ma'lumotnomasi). Natijada davolash uchun mahsulot xisobiga olingan sof foyda 4020000 so'mga teng bo'lgan. Joriy qilingan ish samaradorligi hisobiga olingan sof foyda har bir qilingan 1 so'm xarajatga 8,91 so'mni tashkil qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida va shuningdek SamDVMChBU Toshkent filialida aprobatsiya komissiyasi tomonidan 2 marta yillik professor-o'qituvchilarning hisobot yig'ilishlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shu jumladan 5 tasi xorijiy jurnallarda, 3 tasi mahalliy jurnallarda hamda 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosalar, amaliyotga tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalaridan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» bo‘limida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, ilmiy tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustivor yo‘nalishlarga mosligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, aprotatsiyasi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar sharhi**» deb nomlangan birinchi bobida «Qoramollar infeksiyon mastit kasalligining tarqalishi» deb nomlangan qismida qoramollarda infeksiyon mastit kasalligini o‘rni, tarqalishi haqida ma‘lumotlar bayon etilgan. «Sog‘in sigirlarda infeksiyon mastitning etiologik tuzilishi» deb nomlangan ikkinchi qismida sog‘in sigirlarda infeksiyon mastitlarning etiologiyasi, patologiyasi natijasida kelib chiqadigan belgilar sigirlar yelinida kechishi keltirilgan. «Sut bezining stafilokokkli va streptokokkli infeksiyalari» deb nomlangan uchinchi qismida sut bezlarining stafilokokk va streptokokklar mastit kasalligini qo‘zg‘atishi hamda kasallik chaqirishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. «Qoramollar infeksiyon mastit kasalligi bilan kasallangan sigirlarning sutini sanitar-texnologik sifati va tashxis qo‘yish» deb nomlangan to‘rtinchi qismida infeksiyon mastit kasalligi bilan kasallangan sigirlar sutining sanitar-texnologik holati haqida ma‘lumotlar keltirilgan. «Qoramollarda infeksiyon mastit kasalligini davolash va oldini olish usullarini takomillashtirish» deb nomlangan beshinchi qismida qoramollarda infeksiyon mastit kasalligini davolash va oldini olish usullari to‘g‘risida Respublikamiz va xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Xususiy tadqiqotlar**» deb nomlangan ikkinchi bobi bitta bo‘limdan iborat bo‘lib, «Tadqiqotning obekti va uslublari» deb nomlangan qismida tadqiqotlar joyi, obekti hamda usullari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Ilmiy tadqiqotlar 2021-2023 yillar mobaynida Toshkent viloyati Parkent tumani «Bo‘ston» mahallasidagi «Talant» fermer xo‘jaligi va Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumani «Jamol ota» fermer xo‘jaligida, Yuqori chirchiq tumani «Ergash ota» MChJ chorvachilik fermasi, Yuqori chirchiq tumani «Anor agro chorva» fermer xo‘jaliklari bilan tuzilgan shartnomalar asosida hamda Toshkent viloyati hududlarida yashovchi aholi xonadonlaridagi sog‘in sigirlarda bajarilgan.

Ilmiy tadqiqotlar uchun tekshirishlar olib borish uchun fermer xo‘jaliklarida 244 boshdan iborat, bir yillik etalon guruhi «o‘xshash juftliklar» tamoyili asosida ajratib olinib, ularda infeksiyon mastit kasalligini subklinik davrini aniqlash uchun tekshirishlar o‘tkazildi.

Laboratoriya tekshirishlari O‘zbekiston Respublikasi hayvonlar yuqumli kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazida, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mikrobiologiya ilmiy tadqiqot instituti biokimyolaboratoriya va Darel Veterinariya klinikasida o‘tkazildi.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot natijasi asosida infeksiyon mastitning etiologik omillarini o‘rganish**» deb nomlangan uchinchi bobi beshta bo‘limdan

iborat bo'lib, birinchi bo'limda «Qoramollarda infeksiyon mastit kasalligida stafilokokklarning va streptokokklarning etiologik, biokimyoviy va biologik xususiyatlarini o'rganish natijalari» deb nomlangan qismida safilokokklarning biokimyoviy xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Infeksiyon subklinik mastitdan 133 ta stafilokokk, klinik mastitda 77 ta stafilokokk shtamlarining biokimyoviy xususiyatlari o'rganilgan. Barcha shtammlar stafilokokklarga xos shaklga va xususiyatlarga ega bo'lib, katalaza faolligini namoyon qildi va glyukozani anaerob sharoitda fermentatsiyaga uchratdi. Stafilokokklarning gemolitik faolligi agar-agarga 5% quyvon qoni eritrotsitlarini qo'shib umum qabul qilingan uslubda o'rganilgan. Stafilokokklarning koagulaza faolligi ajratilgan 111 ta stafilokokk shtammlaridan quyvonning qon zardobini 96 ta shtamm (86,5%) va qoramol qon zardobini 108 ta shtamm (97,3%) koagulyatsiyaga uchratgan. Stafilokokklarning patogenligini belgilovchi DNK-aza faolligi o'rganilganda 111 ta shtammdan 48 tasi (43,3%) DNK-aza faolligiga ega ekanligi aniqlanigan. Stafilokokklarning tellurit-reduktaza tekshirish natijasida 111 ta stafilokokk shtammlaridan 96 tasi (86,5%) telluritreduktaza xususiyatiga ega ekanligi, ular tellurit kaliy qo'shilgan agar plastinkalarda, qora koloniyalar hosil qilib, koloniya atrofi oq hoshiya hosil bo'lishi aniqlanilgan. Stafilokokklarning lizotsim faolligini 89 ta *Staphylococcus aureus* va 49 ta *Staphylococcus epidermidis*, jami 111 ta stafilokokk shtamlari o'rganildi. O'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, 111 ta *stafilokokkok* shtammlaridan 89 tasi (80,2%) lizotsim faolligiga ega ekanligi aniqlandi. Stafilokokklarning fibrinolitik faolligi 111 ta tekshirilgan stafilokokk shtammlaridan fibrinolitik faollikka 83 ta holatda (74,8%) va *Staphylococcus epidermidis* shtammlaridan faqatgina shunday xususiyatga 15 shtamm (9,93%) ega ekanligi aniqlanilgan. Stafilokokklarning letsitovitellaza faolligi o'rganilgan 111 ta stafilokokk shtammlaridan 111 tasida (100%) shtammlarda, yog' saqlovchi tuzli-sutli agarda - 58 ta shtammda (52,3%) shtammlar ijobiy natija ko'rsatgan. Stafilokokklarning fosfataza faolligi tekshirish natijasida 111 ta shtammdan 15 ta shtamm koagulaza faolligi bo'yicha ijobiy stafilokokk shtammlaridan fenoltaleinfosfat qo'shilgan ozika muhitda 68 ta shtamm (49,27%) fosfataza faolligini 2 o'rinbosarli paranitro fenilfosfatli oziqa muhitida 70 shtamm (50,72%) faollik ko'rsatdi. Kaogulaza manfiy stafilokokklar ham fosfataza faolligiga ega ekanligi aniqlandi. Shunday qilib, stafilokokklarning kaogulaza va fosfataza faolligi o'rtasida bog'liqlik aniqlanmadi va bu test stafilokokklarning potentsial patogenligini aniqlovchi test sifatida tavsiya etilmaydi. Bu testlardan faqat stafilokokklarning qaysi turga oidligini aniqlash uchun foydalanilsa bo'ladi.

Tadqiqotlar natijasida 111 ta tekshirilgan stafilokokk shtammlaridan fosfataza faollikka faqat 111 ta (100%) shtamm ega ekanligi aniqlanilgan. Stafilokokklarning lipaza faolligi 147 ta stafilokokk shtammlarida o'rganildi. Tekshirishlar natijasida 111 ta stafilokokk shtammlaridan 103 tasi (92,8%) lipolitik xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi.

Qoramollarda infeksiyon mastitda ajratilgan *Streptokokklarning* biologik va biokimyoviy xususiyatlarini o'rganish natijalari keltirilgan.

Infeksion mastit bilan kasallangan sigirlaridan ajratilgan *streptokokk* shtammlarining biologik va biokimyoviy xususiyatlari o'rganilganda shakarli bulonda, +10 °S yoki +45 °S haroratdagi bulonda, shuningdek bulonga 6,5% li osh tuzi yoki 40% o't suyuqligi qo'shilganda *Streptococcus dysgalactiae* o'smadi, ammo tekshirilgan 42 ta shtammdan 17 ta shtamm (36,95%) 10% li o't suyuqligi qo'shilgan bulonda o'sdi. Barcha shtammlar 1:1000 nisbatda metilen ko'ki qo'shilgan bulonda o'smadi, biroq 1:2000 nisbatda metilen ko'ki qo'shilgan bulonda o'sdi. Chesbro-Ivens ishqorli muhitida rN 10,0-10,2 ham o'sdi. 46 shtammdan 17 tasi (36,95%), gippurat natriyni, 29 shtamm (63,04%) tellurit kaliyni gidrolizladi. Barcha shtammlar jelatinani suyultirmadi. Qonli agarda 21 ta (45,65%) shtamm - α - gemolizin, 18 ta (39,13%) shtamm α 1-gemolizin, 7 ta (15,21%) shtamm γ -gemolizin hosil qildi. SAMR-testi bo'yicha o'rganilgan shtamlardan *Staphylococcus dysgalactiae* 42 tasi (91,30%) gemoliz hosil qildi; 4 ta shtamm (8,70 %) umuman gemoliz hosil qilmadi. *Staphylococcus dysgalactiaening* barcha shtammlari glyukoza, galaktoza, laktoza, saxaroza, tregaloza, glitsin, argininni fermentatsiyaladi. Ammo, rafinoza, arabinoza, sorbit, mannit, inulin va glitserinni fermentatsiyalamadi. Bu hususiyatlari ularni patogen ekanligini ko'rsatadi.

Ushbu bobning ikkinchi bo'limida «Infeksion mastit kasalligining subklinik va klinik davrlaridagi streptokokklar va boshqa mikroorganizmlarning etiologik rolini o'rganish natijalari» deb nomlangan qismida subklinik mastit bilan kasallangan sigirlardan 84 ta, klinik mastitdan 29 streptokokk shtammlari ajratildi. Shu jumladan 46 ta (54,76%) *Streptococcus epidermidis*, 29 ta (34,52%) *Streptococcus agalactiae* va 9 ta (10,71%) *Streptococcus faecalis* va *Streptococcus faecium* shtammlari ekanligi aniqlandi.

Ushbu bobning uchinchi bo'limida «subklinik infeksiyon mastitdan ajratilgan *Staphylococcus aureus* va *Staphylococcus epidermidislarning* biokimyoviy xususiyatlarini bir-biriga taqqoslab o'rganish natijalari» deb nomlangan qismida subklinik mastitdan ajratilgan *Staph. aureus* va *Staph. epidermidislarning* biokimyoviy xususiyatlarini bir-biriga taqqoslab o'rganish uchun 83 ta stafilokokk shtammlarining asosiy ko'rsatkichlari tekshirildi. Tadqiqotlar natijasida 83 ta stafilokokk shtammlaridan 21 tasi (21,3%) *Staphylococcus aureus* turiga, 53 tasi (63,85%) *Staphylococcus epidermidis* turiga hamda 9 tasi bosha tur mikroorganizmlariga tegishli ekanligi aniqlandi.

Ushbu bobning to'rtinchi bo'limida «Qoramollarda infeksiyon mastit kasalligi bilan kasallangan sigirlar sutning sifatini tekshirish asosida mastitlarning diagnostikasi» deb nomlangan qismida sog'ib olinib sut na'munalarini kerbatest, mastidin(2% eritma), dimastidin (5% eritma) lar yordamida sog'ib olingan 241 sut na'munasi subklinik mastitga tekshirildi. Kerbatest bilan tekshirilganda 52,7% manfiy, 17,4% musbat, 29,9% shubhali, mastidin 2% eritmasi bilan tekshirilganda 41,5% manfiy, 27,4% musbat, 31,1% shubhali, dimastin 5% eritmasi bilan tekshirganda 45,2% manfiy, 19,5% musbat, 34,8% shubhali ekanligi tadqiqotlarimiz davomida aniqlandi.

Infeksion subklinik mastitlarni diagnostik samaradorligini testlar yordamida qiyosiy taqqoslash natijalari.

F.X.N	Na'munalar soni		Mastidin 2% eritmasi		Dimastidin 5% eritmasi		Kerbatest	
Jamol ota f/x	62	++	31	50%	29	46,8%	37	59,7%
		---	20	32,2%	11	17,75	7	11,3%
		+-	11	17,8%	21	33,9%	18	29,03%
Ergash ota f/x	69	++	29	42,02%	31	44,9%	33	47,8%
		---	19	27,5%	15	21,7%	15	21,7%
		+-	21	30,4%	23	33,3%	21	30,4%
Anor-agro f/x	51	++	19	37,2%	18	35,2%	21	41,2%
		---	11	21,5%	12	23,5%	11	21,5%
		+-	21	41,1%	21	41,1%	19	37,2%
Talant f/x	59	++	21	35,5%	31	52,5%	36	61,01%
		---	16	27,1%	9	15,2%	9	15,2%
		+-	22	37,2%	19	32,2%	14	23,7%
Jami:	241	++	100	41,5%	109	45,2%	127	52,7%
		---	66	27,4%	47	19,5%	42	17,4%
		+-	75	31,1%	84	34,8%	72	29,9%

Ushbu bobning beshinchi bo'limida «Toshkent viloyati tumanlari qoramolchilik fermer xo'jaliklarida mastit kasalligining uchrash darajasi» deb nomlangan qismida Parkent tumani «Talant» chorvachilik fermer xo'jaligida qish oylarida tuqqan 25 bosh sigirlar tekshirilganda ularning 4 boshida (24 %), bahor oylarida tuqqan 30 bosh sigirlarning 7 boshida (23,3 %), yoz oylarida tuqqan 22 bosh sigirlarning 1 boshida (4,54 %), kuz oylarida tuqqan 26 bosh sigirlarning 2 boshida (7,69 %) mastit kuzatildi.

Yangiyo'l tumani «Jamol ota» chorvachilik fermer xo'jaligida qish oylarida tuqqan 19 bosh sigirlar tekshirilganda ularning 4 boshida (21,05 %), bahor oylarida tuqqan 25 bosh sigirlarning 5 boshida (20 %), yoz oylarida tuqqan 16 bosh sigirlarning 1 boshida (6,25 %), kuz oylarida tuqqan 18 bosh sigirlarning 1 boshida (5,5 %) mastit kasalligi aniqlanilgan.

Yuqori chirchiq tuman «Ergash ota» chorvachilik fermer xo'jaligida qish oylarida tuqqan 18 bosh sigirlar tekshirilganda ularning 3 boshida (16,6 %), bahor oylarida tuqqan 22 bosh sigirlarning 4 boshida (18,1 %), yoz oylarida tuqqan 14 bosh sigirlarning 1 boshida (7,14 %), kuz oylarida tuqqan 14 bosh sigirlarning 1 boshida (7,14 %) mastit qayt etildi.

Yuqori chirchiq tuman «Anor agro» chorvachilik fermer xo'jaligida qish oylarida tuqqan 22 bosh sigirlar tekshirilganda ularning 4 boshida (18,1 %), bahor oylarida tuqqan 26 bosh sigirlarning 5 boshida (19,23 %), yoz oylarida tuqqan 12 bosh sigirlarning 1 boshida (8,33 %), kuz oylarida tuqqan 11 bosh sigirlarning 1 boshida (9,1 %) mastit kasalligi kuzatildi.

Dissertatsiyaning «**Qoramollar infeksiyon mastitni davolash natijalari**» nomli to'rtinchi bobi uchta bo'limdan iborat bo'lib birinchi bo'limida «Infeksiyon

mastit qo'zg'atuvchilarini mastisan, mastopred, gentam, ketojekt, perfoceft preparatlariga sezuvchanligini aniqlash natijalari» deb nomlangan qismida infeksiyon mastit qo'zg'atuvchilarini mastisan, mastopred, gentam, ketojekt, perfoceft preparatlariga sezuvchanligi turlicha ekanligi aniqlanilgan. Stafilokokk va streptokokklarga sezgirligi mastisan-25,90%, mastopret-32,13%, gentam-52,04%, ketojekt-43,27%. Tadqiqot natijalari qoramollar infeksiyon mastit kasalligining qo'zg'atuvchilari asosan stafilokokklar va streptokokklarga nisbatan perfoceft pereparatining sezgirligi 86,88% aniqlanilgan.

Ushbu bobning «Infeksiyon mastit bilan kasallangan sigirlarni mastisan, mastopret, ketojekt, gentam, perfoceft preparatlari bilan davolash natijalari» ikkinchi qismida ma'lumotlar keltirilgan.

Toshkent viloyati Yuqori chirchiq tumanida joylashgan «Ergash ota» f/x olib borilgan tajribalarimizda umumiy 18 bosh sigirlarni tajriba guruhlariga hamda bosh nazorat guruhga ajratib olingan.

1-tajrib guruhimiz uchun xo'jalikdan umumiy 3 bosh sigirlar ajratib olinib, mastisan preparati bilan davolash ishlarini olib borganimizda 1 bosh 33.33% ni tashkil qildi.

2-tajriba guruhimiz uchun 3 bosh sigirlarni tashkil qilib bu tajriba guruhimiz uchun mastopret preparati bilan davolash ishlarini olib bordi. Davolash ishlari natijalariga ko'ra 2 bosh 66.66% ni sog'ayish ko'rsatkichlariga erishildi.

3-tajriba guruhimiz uchun umumiy 3 bosh sigirlarni tashkil qilib gentam pereparatini muskul ichiga qo'llaganimizda 1 bosh 33.33% sog'ayish ko'rsatkichlarini tashkil qildi.

4-tajriba guruhimizga ketojekt preparatini qo'llaganimizda 3 bosh mastit bo'lgan sigirlardan 1 bosh 33.33% sog'ayish ko'rsatkichlarini aniqlanilgan.

5-tajrib guruhimizda 3 bosh mastit kasalligi bilan kasallangan sigirlar ajratib olinib Perfoceft preparatidan vena qon tomiriga 3 gr yuborish natijasida 3 bosh 100%ni sog'ayish kuzatilgan

6-Nazorat guruhiga olingan 3 bosh sigirlarga preparatlar qo'llanilmadi kasallikni davolash uchun sigirlarni dag'al ozuqaga o'tkasilib, tez-tez sog'ish ishlari tashkil qilindi. Natijada kasallikdan sog'ayish ko'rsatkichlari aniqlanimadi va kasallangan yelinning o'ng tomondagi 1 ta so'rg'ich kanallari yopilib kasallik asorati sifatida qayd etilgan.

«Ergash ota» f/x o'tkazgan tajribalarimizda davolash ishlari natijasida mastisan 33,33% ni; mastopret 66.66% ni; gentam 33.33%ni; ketojekt 33.33%ni; perfoceft preparati 100% da davolashish ko'rsatkichlarini tashkil qilgan.

Toshkent viloyati Yuqori chirchioq tumani «Anor Agro» f/x olib borilgan olib borilgan tajriba 30 boshdan iborat 5 ta tajriba guruhi va 1 ta nozorat guruhga ajratilib ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

1-tajriba guruhiga 5 bosh tashkil qilib ularga davolash uchun mastisan preparati ishlatilganda 1 bosh 20% sog'ayish ko'rsatkichlari tashkil qilgan

2-tajriba guruhi 5 bosh davolash uchun mastopret preparatidan qo'llanilib 2 bosh 40% kasallikdan sog'aygan sigirlar tashkil qilgan.

3 tajriba gurugida gentam preparati qo'llanilib 5 bosh sigirdan 1 bosh

20% ni kasallikdan davolanish aniqlanilgan

4-tajriba guruhida ketojekt preparati qo'llanilib 5 bosh infeksiyon mastit kasalligi bilan kasallangan sigirlar orasidan 1 bosh 20% da davolanish aniqlanilgan.

5-tajriba guruh uchun ajratilgan sigirlarga perfoceft preparati qo'llanilib 5 bosh kasallangan sigirlardan 4 bosh 80% sigirlarda kasallik asoratlarsiz davolanilganligi tajribalarimiz davomida aniqlanildi.

6-Nazorat guruhi uchun 5 bosh sigirlarni taqqoslash uchun ajratilib kuzatuvlar olib borildi. Nazoratdagi sigirlarga preparatlar qo'llanilmadi ammo ularning ozuqa ratsionlari dag'al ozuqaga o'tkazildi. Qo'lda sog'ish ishlari tashkil qilinib tez-tez sog'ib turildi. Natijada 5 boshdan 1 bosh 20% ni davolanilganligi aniqlanilgan.

«Anor Agro» f/x o'tkazgan tajribalarimizda davolash ishlari natijasida mastisan 20% ni; mastopret 40% ni; gentam 20% ni; ketojekt 20% ni; perfoceft preparati 80% da davolashish ko'rsatkichlarini tashkil qilgan.

Toshkent viloyati Parkent tumani «Talant» f/x olib borilgan tajribalarimiz 36 boshdan iborat 5 ta tajriba guruhi hamda 1 ta nazorat guruhlariga ajratib olindi.

1-tajriba guruhida mastisan preparati qo'llanilib 6 bosh sigirdan 1 bosh 16,66% sog'ayish ko'rsatkichlari aniqlanilgan.

2-tajriba guruhimizda mastopret preparati 6 bosh infeksiyon mastit kasalligida qo'llanilib 2 bosh 33,33% davolashga erishilgan.

3-tajriba guruhimizda gentam preparati qo'llanilib 6 bosh sigirdan 1 bosh 16,66% kasallikdan davolanilgan sigir tashkil qilgan.

4-tajriba guruhimizda ketojekt preparati qo'llanilib 6 bosh sigirlardan 2 bosh 33,33% korsatkichda sigirlar davolanilgan.

5-tajriba guruhimizdadagi infeksiyon mastit sigirlarni davolashda perfoceft preparati qo'llanilib 6 boshdan 5 bosh 83,33% davolashga erishilgan

6-Nazorat guruhiga 6 bosh sigirlar ajratilib olinib davolash uchun preparatlar qo'llanilmagan. Sigirlarni dag'al ozuqaga o'tkazib tez-tez sog'ish ishlari tashkil qilingan. Natijada davolanish 6 boshdan 1 bosh 16,66% tashkil qilgan.

Toshkent viloyati Parkent tumani «Talant» f/x olib borilgan tajribalarimiz davomida mastisan preparati bilan davolanilgan 16,66%; mastopret 33,33%; gentam 16,66%; ketojekt 33,33%; perfoceft 83,33%; nazorat guruhida 16,66% davolash natijalariga erishilgan.

Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani «Jamol ota» f/x olib borilgan tajribalarimizda 5 ta tajriba guruhi hamda nazorat guruhlaridan tashkil topgan jami 30 bosh kasallangan sigirlarda tajribalar olib borildi.

1-tajrib guruhimiz mastisan preparati bilan davolanib 5 bosh kasallangan sigirlardan 1 bosh (20%) sog'aydi.

2-tajriba guruhimiz mastopret preparati qo'llanilib 5 bosh infeksiyon mastit bo'lgan sigirlardan 2 bosh (40%) sog'aydi.

3-tajriba guruhida gentam preparati qo'llanilib 5 boshdan 1 bosh (20%) sog'aydi.

4-tajriba guruhimizda ketojekt preparatidan foydalanib sigirlarda infeksiyon mastit kasalligini davolaganimizda 5 bosh sigirlardan 1 bosh (20%) davolashga

erishildi.

5-tajriba guruhida 5 bosh infeksiyon mastit kasalligi bilan kasallangan sigirlarni perfoceft preparati bilan davolaganimizda 4 bosh 80%ni sigirlar mastit kasalligidan davolandi.

6-Nazorat guruhida 5 bosh infeksiyon mastit bilan kasallangan sigirlar saqlanib ularning ozuqa ratsionlari dag'al ozuqa ratsionlariga o'tkazildi. Sigirlarni kam kam tez tez sog'ish ishlari tashkil qilinganda kasallangan sigirlar orasida 1 (20%) bosh sigir davolandi.

«Jamol ota» f/x o'tkazgan tajribalarimizda davolash ishlari natijasida mastisan 20% ni; mastopret 40% ni; gentam 20% ni; ketojekt 20% ni; perfoceft preparati 80%; nazorat guruhi 20% davolash ko'rsatkichlarini tashkil qildi.

2-jadval

Tajriba xo'jaliklarida mastisan, mastopret, gentam, ketojekt, perfoceft preparatlarini davolash samaradorligi.

Xo'jalik nomlari	Mastit kasalligini davolashda qo'llanilgan preparat nomlari														
	mastisan 5ml/100kg			mastopret 2,5ml/100kg			gentam 1ml/25kg			ketojekt 1ml/ 50kg			perfoceft 20ml		
	jami sigirlar soni	sog'aygan sigirlar soni	%	jami sigirlar soni	sog'aygan sigirlar soni	%	jami sigirlar soni	sog'aygan sigirlar soni	%	jami sigirlar soni	sog'aygan sigirlar soni	%	jami sigirlar soni	sog'aygan sigirlar soni	%
Ergash ota f/x	3	1	33.35	3	2	66.66	3	1	33.33	3	1	33.33	3	3	100
Anor Agro f/x	5	1	20	5	2	40	5	1	20	5	1	20	5	4	80
Talant f/x	6	1	16.6	6	2	33.3	6	1	16.6	6	2	33.3	6	5	83.3
Jamol ota f/x	5	1	20	5	2	40	5	1	20	5	1	20	5	4	80
Jami	91	4	21.05	19	8	42.10	19	4	21.05	19	5	26.31	19	17	89.47

Tadqiqotlarimiz davomida mastisan, mastopret, gentam, ketojekt, perfoceft preparatlaridan fermer xo'jaliklaridagi tajribalarimizda qo'llab ko'rib davolash natijalari aniqlanildi. Mastisan preparati 5ml.dan kun ora 3 marta yuborildi. Har bir kasallangan yelin so'rg'ichlarini spirt bilan disenfeksiyalab shprist katetir bilan

yelin kanallariga yuborildi. Davolash natijalari 21,05% ni tashkil etdi. Mastopret preparati xar bir yelin kanallariga 10ml yuborilgan. Har bir kasallangan yelin so‘rg‘ichlarini spirt bilan dizenfeksiya qilinib shprist katetir bilan yelin kanallariga yuborildi. Davolash natijalari 42,10% ni tashkil etgan. Gentam preparati 25kg/1ml muskulga yuborildi. Kuniga bir maxal 5 kun ineksiya qilinadi. Davolash natijalari 21,05% da sog‘ayish kuzatilgan. Ketojekt preparati 100 kg/1ml muskulga kuniga 1 maxal 5 kun ineksiya qilindi. Natijada tajribadagi sigirlarda 26,31% sog‘ayish kuzatildi. Prefoceft preparati 100kg/5-10ml venaga 72 soatda 1 marta yuborilib, davolash 6 kun davom etdi. Davolash natijasiga 89,47% sog‘ayishiga erishildi.

Ushbu bobning «Qoramollarda infeksiyon mastitni davolashda perfoceft preparatining iqtisodiy samaradorligini aniqlash natijalari va olingan natijalar taxlili» deb nomlangan uchinchi qismida tadqiqotlar o‘tkazilgan xo‘jaliklardagi qoramollar infeksiyon mastitlari, ularning diagnostikasi va davolashni takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy-xo‘jalik tajribalarimizning iqtisodiy samaradorligi anqilandi. Qoramollar infeksiyon mastitlari, ularning diagnostikasi va davolashni takomillashtirish bo‘yicha iqtisodiy samaradorligini hisoblashda faqat qo‘shimcha olingan maxsulotlarning tannarxi va veterinariya tadbirlari uchun sarflangan xarajatlar hisobga olindi. Qoramollar infeksiyon mastitlari, ularning diagnostikasi va davolashni takomillashtirishning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘lib, bir bosh sigirga sarflangan bir so‘m hisobiga qilingan xarajatlar qoplami 9,47 so‘mni tashkil etadi.

XULOSA

1. Tadqiqotlarimiz davomida infeksiyon subklinik mastit bilan kasallangan sigirlar sutida 47,36% *stafilokokklar*, 36,09% *streptokokklar* va 9,02% boshqa tur mikroorganizmlar mavjudligi isbotlandi.

2. Bakteriologik tekshirishlar natijasida qoramolchilik xo‘jaliklari va aholi qaramog‘idagi klinik mastit bilan kasallangan sigirlarning sutidan 62,3 % *stafilokokklar*, 28,6 % *streptokokklar* va 9,09 % boshqa tur (*psevdomonada*, *esherixia*, *protey*, *sitrobakteriya* va *enterobakteriyalar*) bakteriya shtammlari mavjudligi aniqlandi.

3. Tadqiqotlarimiz natijasida sigirlarda infeksiyon mastitning asosiy qo‘zg‘atuvchilari *stafilokokk* va *streptokokklar* ekanligi, ularning etiologik roli klinik mastitda 63,85% subklinik mastitda esa 25,3 % tashkil etishi aniqlandi.

4. Toshkent viloyatida olib brogan ilmiy tadqiqotlar davomida o‘tkazilgan qoramolchilik fermer xo‘jaliklarida va aholi qaramog‘idagi sigirlar orasida infeksiyon klinik mastit bilan kasallanish darajasi o‘rtacha 6,5% va subklinik mastit bilan kasallanish 17,4% ni tashkil etishi aniqlandi.

5. Sigirlarda subklinik mastitlarni barvaqt aniqlashda kerbatest bilan sinama o‘tkazish yuqori diagnostik samaradorlikka ega, bajarilishi oson va qulay bo‘lganligi uchun amaliyotga keng joriy etish mumkin.

6. Qoramollarda infeksiyon klinik mastitni davolashda mastisan 42,3%, mastopret 24,5%, gentam 21,05%, ketojektning 33,9%, davolash samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

7. Qoramollar infeksiyon mastit kasalligini davolashda perfoceft preparati qo'llanilganda terapevtik samaradorligi 89,47% ijobiy samara berishi ilmiy ishlarimiz davomida aniqlandi.

8. Kataral mastit bilan kasallangan sigirlarni davolashda perfoceft eritmasidan 3 gr (yuqori doza) bir haftada 1 marta vena qon tomiriga yuborish, kasallangan yelin so'rg'ichilarini 2 soat oralatib sog'ish orqali kun davomida davolash majmuasi yuqori samaradorlikka ega bo'ldi.

9. Qoramollarda infeksiyon mastit kasalligini perfoceft preparati bilan davolashning iqtisodiy samaradorligi 1 so'm qilingan xarajatga 9,47 so'mni tashkil etishi aniqlandi.

10. Mastit bilan kasallangan sigirlar yelinidan ajratilgan stafilakokk va streptakokklarni biokimyoviy xususiyatlariga qarab potogenligini aniqlandi, ushbu usullar veterinariya laboratoriyalariga tavsiya etildi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ РНД.05/30.12.2019.QX.13.02 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ САМАРКАНДСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ
МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИИ**

КУЗИБАЕВА УГИЛБУ ИМОМАЛИ КИЗИ

**УЛУЧШЕНИЕ ДИАГНОСТИКИ И ЛЕЧЕНИЯ ИНФЕКЦИОННОГО
МАСТИТА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА**

**16.00.03- Ветеринарная микробиология, вирусология, эпизоотология, микология с
микотоксикологией и иммунология**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИЯ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ
(PhD) ПО ВЕТЕРИНАРНЫМ НАУКАМ**

Ташкент-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.4.PhD/V106.

Диссертация выполнена в Ташкентский филиал Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (www.tdau.uz), Республиканском научном сельскохозяйственном библиотеке, Национальном информационном агентстве Узбекистана а также на Информационно-Образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:

Менглиев Гайрат Акрамович
кандидат ветеринарных наук, доцент

Официальные оппоненты:

Абдусатторов Абдусалом Абдусатторович
доктор ветеринарных наук, профессор

Элмуродов Бозорбой Акрамович
доктор ветеринарных наук, профессор

Ведущая организация:

Комитет Республики Узбекистан по ветеринарии и развитию животноводства

Защита диссертации состоится «15» марта в 14⁰⁰ часов на заседании разового научного совета на основе научного совета по присуждению ученой степени PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 при Ташкентском государственном аграрном университете. (Адрес: 100140, Ташкент, ул. Университетская, 2-дом административное здание Ташкентского государственного аграрного университета, 2-этаж, конференцзал) Тел: (+99871) 260-48-00, факс (+99871) 260-38-60, e-mail: tuag-info@edu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного аграрного университета (зарегистрирована за № 552093) Адрес: 100140, Ташкент, ул. Университетская, 2-дом здание ИРЦ ТашГАУ, 1-этаж. Тел: (+99871) 260-50-43

Автореферат диссертации разослан «17» февраль 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 42 от «13» февраль 2025 года.



Ш.Р.Умаров

член разового Научного совета по присуждению ученой степени, д.с/х.н., профессор

Ш.А.Абдурасулов

секретарь разового научного совета по присуждению ученой степени, к.б.н

С.И.Мавлянов

Председатель разового Научного семинара при Научном совете по присуждению ученой степени, д.в.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом масштабе племенным и продуктивным параметрам уделяется особое внимание при разведении пород крупного рогатого скота. Развитию этого направления, в ряде случаев, у животных сдерживается распространением различных инфекционных и инвазионных заболеваний. «...Определенную роль в этом направлении играют маститы маточного поголовья, достигающие 40-60%»¹ экономического ущерба из-за снижения удоев и качества молока, увеличения заболеваемости телят, проведения различных ветеринарно-санитарных мероприятий в хозяйствах это ложится тяжелым бременем в удовлетворении потребностей населения в продуктах питания и обеспечении продовольственной безопасности ведущее положение занимает молочное скотоводство. Для интенсивного развития этой отрасли актуальной задачей считается увеличение поголовья здоровых высокопродуктивных коров, продление сроков их лактации, максимальное использование их генетического потенциала, а также получение экологически чистого молока и качественной молочной продукции.

